



## KITOB TAFAKKUR VA MA'NAVIYAT XAZINASI.

**Davlyatova Emina Muratovna**

*Angor tumanidagi 12-sonli umum ta'lim maktabi kutubxona mudirasi*

*“Bugun bitta kitob o'qigan bola,*

*ertaga televizor ko'rib o'tirgan o'nta bolani boshqarishi mumkin”*

***Ozbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.***

Kitob - beminnat ustoz. Har daqiqa u bizni donishmandlarning bilim xazinasini bilan oshno eta oladi», deb yozadi buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarni kitobxonlikka jalb etish, ma'naviyatini yanada yuksaltirish bo'yicha keng islohatlar olib borilmoqda. Ma'lumki, aholining intellektual va ma'naviy-estetik ehtiyojini qondirish, xususan, yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar va ma'nan barkamol insonlar qilib tarbiyalashda kitobning o'rni beqiyosdir. Hozirgi kunda yurtimizda kitob bilan bog'liq masalalarga ham yetarlicha e'tibor qaratilgan. Yoshlarni barkamol avlod ruhida tarbiyalash uchun kitob o'qish masalasi yoshlar orasida keng targ'ib qilinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yilning 12-yanvar kuni “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida” farmoyishi e'lon qilindi. Shuningdek "Besh muhim tashabbus" doirasida ham juda ko'p kitobxonlik tanlovlari tashkil etilib, ko'pgina yig'it-qizlar ushbu tanlovlarga qamrab olindi.

Kitob inson uchun eng yaxshi do'stdir. Kitobdan shunchaki ermak yoki bo'lmasa zerikishda qo'l keladigan bir vosita sifatida foydalanish xatodir. Kitob tafakkur va qalb ehtiyojini qondiruvchi omil sifatida inson ruhini tarbiyalaydi, uning shaxsi shakllanishida asosiy turtki beruvchidir. Kitob mutolaa qilish jarayonida undagi ma'lumotlarni kishi nafaqat ongi va ko'zi, shuningdek ko'nglini ham birdek uyg'oq holda tutishi bilan xotirasida saqlab qolishi mumkin. Kitob o'qishdan maqsad bu – uning mazmunini anglab yetish, unga singdirilgan ma'no-mazmunni qalban tuyish va bu orqali ma'nan ozuqaga ega bo'lishdir. Kitob mutoalasi insonda ma'naviy bo'shliq paydo bo'lishiga zinhor va zinhor yo'l qo'ymaydi, shunday ekan kitobni mutolaa qiluvchi har qanday inson yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lib yetishishi mumkin. Kitoblar zamonlar to'lqinlarida suzuvchi va o'zining qimmatbaho yukini avlodlardan avlodlarga avaylab eltuvchi tafakkur kemalaridir. Kitob o'qish- jamiyatning umumiy saviyasini ko'taradigan, demak, taraqqiyotga, rivojlanishga xizmat qiladigan muhim omildir. Shuni hisobga olgan holda jannatmakon yurtimizda kitobga muhabbat, e'tibor o'zgacha. Buyuk mutafakkirlardan biri aytganidek, kitob- sehrGAR. Kitob dunyoni qayta qurdi. Unda odamzodning aqli mujassam, u kishilik tafakkurining ustuni. Kitobsiz olam yovvoyilar olamidir. Bugun yoshlar orasida shunday bebaho boylikka bo'lgan e'tibor



qanday? Keling, shu masalada mulohaza yuritib ko'ramiz. Kitob insoniyat ijodiyotining chinakam hayratlanarli va e'tiborga loyiq ko'rinishidir. Kitoblarda kechmish, zamonlarning aql-idroki yashaydi, xoki, tuproqlari, tush singari allaqachonlar to'zg'ib ketgan odamlarning ovozi burro va aniq yangrab turadi. Insoniyat yaratgan, qayta-qayta o'ylab ko'rgan va u erishgan narsalarning bari-xuddi sehri sandiqdek kitoblar sahifalarida saqlanib qolgan. Ushbu sehri sandiqlarni ochish va undan foydalanish bugun ko'ngildagidek emasligi, sir emas.

Darhaqiqat kitob o'qimagan insonning manaviyati bo'lmaydi. Dunyoqarashi past bo'ladi, olam sirlarini bilmoq istasak ko'p kitob o'qimoq kerak. Zero, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, "kitob – beminnat ustoz, bilim va manaviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai". Xalqimiz tilida ham kitob o'qib bilim va munosib talim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug'ullanish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda kop. Jumladan, "Kitobsiz aql – qanotsiz qush", "Go'zallik – ilmu marifat bilan", "Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar", "Hunar – oqar buloq, ilm – yonar chiroq", "Baxt belgisi – bilim", "Bilim – aql chirogi", "Beshikdan qabrgacha bilim izla", "Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol". Bu kabi purmano va serhikmat naqlar kitob sevuvchi xalqimiz lug'atida ko'plab topiladi.

Kitob maslahatchi, sadoqatli hamroh, eng yaqin do'st va bebaho boylik hisoblanadi. Inson hayotida uning o'rni muhim. Millatning ma'naviy-ruhiy dunyosini kitobga munosabati, kitobxonlik darajasiga qarab ham aniqlash mumkin. Jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz erishgan betakror yutuqlarning sababi ham kitob mutolaasidir. Shu bois yurtimizda aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan 5 ta muhim tashabbusning biri yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan. Xususan ushbu tashabbus doirasida Angor tumanidagi 12-sonli umumta'lim maktabida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi qarori e'lon qilindi. Hujjat matni O'za tomonidan keltirilgan. Shuningdek prezidentimizning "Kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" farmoyishining imzolanishi mamlakatimizda kitobga bo'lgan, kitobxonlikka bo'lgan e'tibor va e'tirofning yorqin namunasidir. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlari yaratish va o'quvchilarga yetkazishning mustahkam tizimi yaratildi, bunda O'zbekistonda ta'lim berilayotgan yettita tilda darslik va o'quv qo'llanmalari nashr etilmoqda. Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarining moddiy-texnika bazasi yangilanib, zamonaviy elektron kutubxonalar tizimlari faoliyat ko'rsatmoqda", — deyiladi farmoyishda. "Shu bilan birga, ushbu muhim soha rivoji bilan bog'liq aholi, xususan, yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishda bir



qator muammolar mavjudligini qayd etish lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlarni kitobxonlikka bo'lgan qiziqishlarini, bilimlarini oshirish bo'yicha "Yosh kitobxon" tanlovinining tashkil qilinishi mamlakat yoshlari hayotida katta bir o'zgarishlarga boy bo'ldi. Tanlov maqsadi qadimiy va betakror diyorimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma'naviy merosini, umumbashariy sivilizatsiya, madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizning noyob asarlarini asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, ularning nodir merosini, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, yoshlarimizni o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o'rtasida kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish. Mamlakatning ma'naviy darajasini ko'rsatadigan muhim ko'rsatkichlardan biri o'sha xalqning kitobxonligi, bugun qanday kitoblarni mutolaa qilayotganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun hozirgi kunda xalqimiz orasida kitobxonlik madaniyatini oshirish, yoshlarni ommaviy kitobxonlikka jalb etish borasida davlat siyosati darajasida bir qator amaliy ishlar bajarilmoqda. Chunki Prezidentimiz ham o'z nutqida ta'kidlaganidek, bugun kitob o'qiyotgan bola ertaga o'nta televizor ko'rayotgan bolalarni boshqarishi aniq. Buni "Yosh kitobxon" tanlovi orqali sezish qiyin emas. Bu tanlov yangi davrning "kitobxonlar avlodi"ni shakllantira oldi. Yoshlar kitobga, ma'rifatga qaytdi, kadrlar masalasi bo'yicha yuzaga keladigan muammolar asta-sekin bartaraf etilmoqda. Kitobxonlik tanlovlari yosh oilalar o'rtasida ham o'tkazilayotgani esa quvonarli hol. Albatta, insonning eng sof va eng pokiza tuyg'ulari oila bag'rida shakllanadi. Ahir o'sayotgan farzand tarbiyani qo'lida kitob ko'targan ota-onasidan o'rganadi. U ham ertaga televizor qarshisida emas, kitoblar qarshisida ilm olishga chog'lanadi. Kitob o'qigan oilaning ma'naviy havosi toza bo'ladi. Buyuklar, daholar ulg'ayadi bu xonadonlarda. Albatta mamlakatimizda kitobxonlikka bo'yicha amalga oshirilayotrgan islohatlarning zamirida yosh avlodni manan yetuk

Qayd etilganidek, kitob — qalblarni yorituvchi nur, tafakkurni boyituvchi xazina, kamolot cho'qqisi va ma'naviy komillikka yetaklovchi hamroh. Bugun mamlakatimiz bo'ylab o'tkazilayotgan "Mening birinchi kitobim", "Eng yaxshi kitobxon", "Kitobxon oila" kabi kitob bayramlari, sayillar yoshlarni kitobxonlikka chorlash, ularning kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqishlarni yanada oshirish va shu orqali ma'naviy dunyosini boyitish, ona-Vatanni sevish, sadoqat tuyg'ularini shakllanishiga, shuningdek, bunyodkorlik g'oyalarini yuzaga chiqarishdek ezgu ishlarni o'zida mujassam etganligi bilan ham muhim ahamiyatga ega. Kitob o'tmishni bugun va kelajakka bog'laydigan o'ziga xos ko'prikdir. Agar har bir o'qilgan kitob quvonch va alam, shijoat hamda ruhiy tazarru olib kelmasa, jahon adabiyoti tarixini bilishdan ma'no yo'q. Fikr-mulohaza qilmasdan o'qish – xushmanzara tabiat qo'ynida ko'zni bog'lab yurmoq demak. Biz o'zimizni va turmushimizni unutish uchun emas, balki hayot jilovini yanada ongliroq ravishda anglash uchun o'qishimiz kerak. Kitobga dimog'dor o'qituvchiga qaragan qo'rqqoq o'quvchi singari emas, balki eng baland cho'qqini zabt etmoqqa shaylangan



shiddatkor alpinist kabi yondashmoq talab etiladi. Ruhияtimizning tabiiy, tug'ma ehtiyoji – tur, xil, namunalarni aniqlab olish va ular asosida butun insoniyatni turguga ajratib chiqishni taqozo etadi. Teofrast "Xarakterlar" idan tortib, to ajdodlarimiz va otabobolarimizning to'rt mizoj to'g'risidagi tushunchalari (inson tabiatiga xos xususiyatlar) va eng zamonaviy psixologiyaga qadar, mana shu ehtiyoj turlangan tartibda muntazam namoyon bo'lib, sezilib turadi. Qolaversa, har qanday kishi ham atrofidagi odamlarni yoshligida o'zi uchun muhim xarakterlar bilan o'zaro o'xshashligiga qarab, ko'pincha g'ayrushuuriy bir tarzda guruhlarga bo'lib chiqishi tabiiy. Bunday bo'linishlar, qanchalik jozibali va yoqimli bo'lmasin, sof shaxsiy tajribaga yoki qandaydir ilmiy tipologiyaga asoslanishidan qat'i nazar, har qanday odamda ham har qaysi turguga xos xususiyat, belgilar va o'ta qarama-qarshi xarakterlar hamda mizojlar, bir-biri bilan o'zaro almashinib turadigan holatlar yanglig', har bir alohida shaxsda uchrashi mumkinligini ta'kidlab, tajribaning yangi kesimini belgilab olish ba'zan o'rinli va samarali bo'lishi mumkin.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat, yengilmas kuch" asari.
2. Shavkat Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" asari.
3. Shavkat Mirziyoyevning «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi qarori.
4. Davronbek Tojaliyev "Kitob" asari